**O‘zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

***61010900 – Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish*** **bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Chirchiq — 2023**


№ 301
12 07 2023

**ISHLAB CHIQILGAN:**
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «12» 07 dagi 301 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA


| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .......................................... | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi .......................................................................................................... | 4 |
| 1.1.1. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi............................... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari ....................................................... | 4 |
| 1.2. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .......... | 4 |
| 1.2.1. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari……….. | 4 |
| 1.2.2. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari ...... | 4 |
| 1.2.3. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari ........... | 5 |
| 1.2.4. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari ......................... | 5 |
| 2. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .................................................................................................... | 6 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar.................................................................................................. | 6 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar.................................................................................................... | 6 |
| 2.3 | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .................................................................................................... | 8 |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya .................................................................................................................. | 8 |
| 2.3.2. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar ............................................................................................................................ | 9 |
| 2.3.3. | *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi ............... | 9 |
| | Bibliografik ma'lumotlar ................................................................................................ | 10 |
| | Kelishuv varag'i ............................................................................................................... | 11 |

**1. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi**

***61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

***61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish*** – xizmat ko'rsatish ta'lim sohasidagi yo'nalish bo'lib, u sport korxona va tashkilotlarida menejment, marketing va sport tadbirlarini tashkil etish, menejmentning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalarni amalga oshirish, sport tashkilotlarida innovatsion menejment faoliyatini tashkil etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, bozordagi brendni yanada kuchaytirish va uning taniqliligini oshirish, mustaqil daromad topish manbalarini izlash, homiylik va reklama faoliyati samaradorligini oshirish, mijozlar va muxlislarga nisbatan alohida yondashuvni amalga oshirish, sport tashkilotlarining imijini yaxshilash, davlat va xususiy mulk mushtarakligida sport menejment strategiyasini ishlab chiqish, murabbiylar, sportchilar va hakamlar faoliyatida boshqaruv mexanizmidan samarali foydalanish, ishqibozlar, homiylar, sportchilarni sotish va sotib olish, ommaviy sport, sport biznesi, sog'lom turmush tarzi hamda sport sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va uni tartibga solish tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish masalalari majmuasini qamrab oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.2. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimi tashkilotlari:

– O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi va uning tegishli bo'limlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi va uning tegishli bo‘limlari;
– Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari;
– sport maktablari;
– ixtisoslashgan sport maktablari;
– jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari tizimi;
– sport tashkilotlari va korxonalarining boshqaruv tizimlari;
– sport klublari va milliy terma jamoalari;
– sport bilan professional tarzda shug‘ullanuvchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlari;
– sport federatsiyalari va assotsiyatsiyalari;
– sport agentliklari;
– “Sport” erkin iqtisodiy zonalari;
– ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ilmiy va texnik loyihalari.

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

**1.2.3. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*– tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
*– ishlab chiqarish faoliyati;*
*– axborot-tahliliy faoliyat;*
*– ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
*– loyihaviy-konstruktorlik faoliyati;*
*– tadbirkorlik va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.*

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

**1.2.4. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– sport tashkilotlarida boshqaruv tarkibiy bo‘limlarini shakllantirish;
– tarkibiy bo‘limlar haqidagi nizomlar va lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo‘lish;
– sport tashkilotlari va korxonalari menejment faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
– sport tashkilotlari va korxonalarining menejment faoliyatini samarali amalga oshirish hamda sport tadbirlarini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan munosabatlar va jarayonlarni rejalashtirish;
– sport sohasida zamonaviy raqamli marketing kommunikatsiya tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga tatbiq etish;
– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy menejment mexanizmidan samarali foydalanish;
– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va korxonalarida innovatsion menejment tizimini tashkil etish;
– sport tashkilotlari va korxonalari tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlash;
– sport tashkilotlari va korxonalarida boshqarish samaradorligini oshirish;

– sport tashkilot va korxonalarida mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

– sport boshqaruvida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish;

– ishlab chiqarish korxonalarida menejment va marketing tamoyillarini qo'llash;

– sport tashkilotlari va korxonalarida menejer va marketolog faoliyatini oqilona tashkil etish;

– sport tashkilotlari va korxonalarida marketing tizimini tashkil etish;

– sport tashkilotlari va korxonalarida samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

– jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

– xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– sport menejment va marketing tadqiqotlari yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

– fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

– sport tadbirlari faoliyati bo'yicha ish rejasini bajarilishini nazorat qilish va amalga oshirilgan ishining natijalarini baholash;

– ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

***2. 61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

– ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, sport sohasi muammolari va jarayonlarini mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

– o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

– o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

– fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

– o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

– axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot

texnologiyalaridan foydalana olishi;

– bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

– ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

– patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

– raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

– davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar**:

– me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– tashkiliy tuzulmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

– korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil etilishi, modellashtirishi va istiqbollashtirishi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv yechimini qabul qilishga, bozordagi brendni yanada kuchaytirishga, "Sport" erkin iqtisodiy zonalarida raqobatbardosh sport mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha boshqarish tizimini ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq qilishi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida inson resurslarini boshqarish tizimini ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq qilishi;

– jismoniy tarbiya va sportda zamonaviy menejment va marketing mexanizmini ishlab chiqishi va amaliyotga tadbiq qilishi;

– jismoniy tarbiya va sportda marketing va uning iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishni bilishi;

– sport tashkilotlari, klublari, jamolari va korxonalarida menejment va marketing tizimini to'g'ri tashkil qilish va motivatsiyalashning psixologik xususiyatlar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishni;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejmentni tashkil etish;

– boshqarishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash;

– xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlarni va resurslarni rejalashtirish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida menejment tamoyillarini qo'llash;

– boshqarish qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy-moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

– jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv-tanishuv amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport faoliyati bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:**

– sport menejeri.

**2.3.2. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 4440 | 148 |
| Tanlov fanlar | 1380 | 46 |
| Malakaviy amaliyot | 1260 | 42 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 |

**2.3.3. *61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4440 | 148 | |
| 1.01 | 382O'ZRT0123 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | 382O'EYT0223 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | 382SXRT0323 | Sportda xorijiy til | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | 382O'TSQ0423 | O'zbek tilining sohada qo'llanilishi | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | 382DNSH0523 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | 382FALS0623 | Falsafa | 120 | 4 | 3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.07 | 382SPME0723 | Sport metrologoyasi | **120** | **4** | **4** |
| 1.08 | 382JTNU0823 | Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (1-qism) | **120** | **4** | **4** |
| 1.09 | 382JTNU0923 | Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (2-qism) | **120** | **4** | **5** |
| 1.10 | 382BPSI1023 | Boshqaruv psixologiyasi | **120** | **4** | **8** |
| 1.11 | 382STTE1123 | Sport turlari bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish (yengil atletika, gimnastika) | **120** | **4** | **1** |
| 1.12 | 382STTE1223 | Sport turlari bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish (basketbol, suzish) | **120** | **4** | **2** |
| 1.13 | 382STTE1323 | Sport turlari bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish (voleybol, gandbol) | **120** | **4** | **3** |
| 1.14 | 382OSIA1423 | Ommaviy sportning iqtisodiy va ijtimoiy asoslari | **120** | **4** | **1** |
| 1.15 | 382STTE1523 | Sportda tadbirlarni tashkil etishda me'yoriy hujjatlarini yuritilishi | **120** | **4** | **1** |
| 1.16 | 382MNNA1623 | Menejment nazariyasi | **180** | **6** | **1** |
| 1.17 | 382SSVM1723 | Sport sohasida vaqt menejmenti | **120** | **4** | **1** |
| 1.18 | 382IQTN1823 | Iqtisodiyot nazariyasi | **180** | **6** | **2** |
| 1.19 | 382KORB1923 | Korporotiv boshqaruv | **180** | **6** | **2** |
| 1.20 | 382STTB2023 | Sportda tadbirlarni tashkil etish va boshqarish | **120** | **4** | **3** |
| 1.21 | 382SBHM2123 | Sportda bugalteriya hisobi va moliyaviy menejmenti | **120** | **4** | **3** |
| 1.22 | 382ISM2223 | Jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion va strategik menejmenti | **120** | **4** | **3** |
| 1.23 | 382JTSM2323 | Jismoniy tarbiya va sport menejmenti | **180** | **6** | **4** |
| 1.24 | 382SIBE2423 | Sport inshootlarini boshqarish, ekspluatasiya qilish va uni ekipirovkasi | **120** | **4** | **5** |
| 1.25 | 382STFA2523 | Sportda tadbirkorlik faoliyati | **120** | **4** | **5** |
| 1.26 | 382SSIN2623 | Sport sanoati innovatsiyasi | **120** | **4** | **5** |
| 1.27 | 382JTSI2723 | Jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyoti (1-qism) | **180** | **6** | **5** |
| 1.28 | 382JTSI2823 | Jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyoti (2-qism) | **180** | **6** | **6** |
| 1.29 | 382SXME2923 | Sportda xalqaro menejment | **180** | **6** | **6** |
| 1.30 | 382XSHA3023 | Xalqaro sport harakatining huquqiy asoslari | **120** | **4** | **8** |
| 1.30 | 382XSHA3023 | Sport sohasida standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish | **120** | **4** | **8** |
| 1.31 | 382SBBR3123 | Sportda brendni boshqarish va reklama faoliyati | **180** | **6** | **8** |
| 1.32 | 382SSIR3223 | Sport sohasida inson resurslarni boshqarish | **120** | **4** | **8** |
| **2.00** | | **Tanlov fanlari** | **1380** | **46** | **3,4,5,6,7,8** |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar (11 ta fan)* | *1380* | *46* | *3,4,5,6,7,8* |
| | | **Jami** | **5820** | **194** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | **1260** | **42** | **2,4,6,7** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **120** | **4** | **8** |
| | | **Jami** | **1380** | **46** | |
| | | **HAMMASI** | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni, menejment konsepsiyasi, sport menejmenti (sport turlari bo'yicha), jismoniy tarbiya va sport sohasida inson resurslarini boshqarish, sport faoliyatini bashoratlash, jismoniy tarbiya va sportga oid siyosat, sport salohiyati, jismoniy tarbiya va sportda mehnat bozori, ilmiy boshqarish, innovatsion ishlanmalar, g'oyalar va texnologiyalar, jismoniy tarbiya va sportda boshqarish tizimi, sportda saralash, modellashtirish, sport iqtisodiyoti, sport marketingi (sport turlari bo'yicha), sportda loyihalarni moliyalashtirish, jismoniy tarbiya va sportda oid konsepsiyalar, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, sport marketingi, menejer, marketolog, marketing tadqiqotlari, segmentlash, jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyoti, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**

**Rektor** ____________ **M. Boltabayev**

2023-yil «_____» ____________

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**
**Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va**
**ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

**Direktor** ____________ **Sh. Yakubov**

2023-yil «12» 07

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati**
**va sport vazirligi**

**Vazir o'rinbosari**

____________ **D. Raximova**

2023-yil «_____» ____________

**O'zbekiston Milliy Olimpiya**
**Qo'mitasi**

**Bosh kotib** ____________ **O. Kasimov**

2023-yil «_____» ____________

**Respublika Olimpiya va paralimpiya**
**sport turlariga tayyorlash markazi**

**Direktor** ____________ **A. Mamadaliyev**

2023-yil «_____» ____________

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**
**61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Chirchiq sh. “___” __________2023-yil

Biz quyida imzo – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o‘rinbosari D. Raximova, O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi Bosh kotibi O. Kasimov, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori A. Mamadaliyev va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori M. Boltabayev birgalikda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*61010900 - Jismoniy tarbiya va sport menejmenti, sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish* ta’lim yo‘nalishi malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o‘rinbosari** — **D. Raximova**

**O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi bosh kotibi** — **O. Kasimov**

**Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori** — **A. Mamadaliyev**

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori** — **M. Boltabayev**